



ROSSIYA FEDERATSIYASINING HARBIY-IQTISODIY SALOHİYATI TAHLILI

Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistri

Ashurov Shuhrat Qudrat o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistri

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8046910>

ARTICLE INFO

Received: 06th June 2023

Accepted: 15th June 2023

Online: 16th June 2023

KEY WORDS

Harbiy-iqtisodiyot, eksport, import, federal budget, harbiy texnik hamkorlik (HTH), harbiy salohiyat indeksi (FPI), mudofaa sanoati, xolding, ustav kapital, sotib olish qobiliyati pariteti (SOQP).

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi kundagi davlatlarning harbiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tadqiq etildi. Shuningdek harbiy-iqtisodiy faoliyatdagi eksport kompaniyalar, tashkilotlarning o'rne ochib berilgan. Mudofaa sanoati harbiy-iqtisodiy faoliyatidagi roli va vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Harbiy-iqtisodiy faoliyat iqtisodiy barqarorlikning himoyachisi va uni rivojlanishida muhim omil hisoblanishi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan.

1998-yildan boshlab XX asrning so'nggi o'n yilligida Rossiya harbiy iqtisodiyoti rivojlanishidagi deyarli o'n yillik pasayishdan so'ng harbiy xarajatlarning o'sishi boshlangan. Rossiya Qurolli Kuchlarini faol modernizatsiya qilish jarayoni faqatgina 2008¹-yilda boshlandi. Ammo harbiy-iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishdagi tub o'zgarishlar 2011-yildagina sodir bolib, bunda Rossiya armiyasini qayta jihozlash dasturi asosan xorijiy harbiy texnikaning zamonaviy turlarini sotib olishga va mahalliy qurol-yarog' va harbiy texnika (вооружения и военная техника ВИВТ)² ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Ushbu islohotlar 2014-yilda import o'rnini bosish dasturi qabul qilinishidan oldin sodir bo'lgan. 2011-yilda ГВП (государственная программа вооружения) 2011-2020 (keyingi o'rinlarda ГВП-2020)³ qayta qurollanish dasturi tasdiqlandi, va bu sovuq urush tugaganidan keyin Rossiyada birinchi muvaffaqiyatli qurollanish dasturi hisoblanadi.

So'nggi paytlarda Rossiya Federasiyasining xavfsizligiga siyosiy va iqtisodiy tahdidlar kuchayishi va qurolli kuchlar sonining kamayishiga qaramay, Rossiya zamonaviy sharoitda o'z resurslari va qisman sherik davlatlar bilan hamkorligi tufayli muhim harbiy-iqtisodiy salohiyatni saqlab kelmoqda. Ushbu holatning eng muhim ko'rsatkichi Rossiyaning qurol-yarog' bozoridagi mustahkam pozitsiyasidir. 2019-yil ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya harbiy

¹ Панкова Л.В. Корректировка госпрограммы вооружения России / Ежегодник СИПРИ: вооружения, разоружение и международная безопасность. Пер.с англ. М.: ИМЭМО РАН, 2018. 772 с.

² Панкова Л.В. Гонка вооружений и принцип достаточности // Металлы Евразии, 2017. № 5. С. 6–9; Панкова Л. Оборонный бюджет 2016 г.: важнейшие проблемы и возможные решения / Ежегодник СИПРИ: вооружения, разоружение и международная безопасность. Пер. с англ. М.: ИМЭМО РАН, 2018. 772 с.

³ Это четвертая в современной России программа перевооружения российской армии, и действительно успешная.



sarf xarajatlar bo'yicha oltinchi o'rinda turadi, bu AQShning tegishli xarajatlaridan 16 baravar, Xitoydan esa tahminan olti baravar kam. G'arb ekspertlarining fikricha agarda harbiy xarajatlarni sotib olish qobiliyati pariteti (SOQP) bo'yicha hisoblansa, unda Rossiya harbiy xarajatlarga AQShdan atigi to'rt baravar kam mablag' sarflashi aniqlandi.⁴ Mutaxassislar M. Kofman va R. Konnelining hisob-kitoblariga ko'ra, Rossiya har yili harbiy xarajatlarga 150-180 milliard AQSh dollar sarflagan, yashirin xarajatlarni hisobga olgan holda harbiy xarajatlarning umumiy miqdori 200 mlrd AQSh dollarni tashkil etadi.⁵

"Milliy mudofaa" bo'limining idoraviy tuzilmasidagi asosiy budjet mablag'larining (89%) Rossiya Federatsiyasi mudofaa vazirligi, *Rossiya Federatsiyasi sanoat va savdo vazirligi* va *Rosatombank* davlat korporatsiyasiga to'g'ri keladi. Ushbu bo'limda yettita dastur mavjud:

- qurolli kuchlar;
- safarbarlik va harbiy bo'lmagan tayyorgarlik;
- iqtisodiyotni safarbarlik holatiga tayyorgarligi;
- yadro qurollari kompleksining holati;
- harbiy texnik hamkorlik (HTH) sohasidagi xalqaro majburiyatlarni amalga oshirish darajasi;
- mudofaa sohasidagi amaliy ilmiy tadqiqotlarning holati va boshqa masalalar.

Rossiyaning jahon harbiy iqtisodiyotidagi o'rni haqida gapirganda nafaqat harbiy xarajatlarni, balki mamlakatning qurol-yarog' va harbiy texnika ishlab chiqarish qobiliyati, Rossiya Federatsiyasining jahon qurol savdosida ikkinchi o'rinni egallashi kabi omillarni ham hisobga olish kerak (2018-yil natijalariga ko'ra, bu 15 milliard AQSh dollardan oshadi). Shuning uchun, harbiy salohiyat indeksi (FPI) reytingida (hatto yadro qurollarini hisobga olmaganda) Rossiya AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi (Rossiya Federatsiyasining FPI – 0,0639, AQSh – 0,0615)⁶. 2022-yil 5-dekabrda Rossiya prezidenti Vladimir Putin imzolagan federal budjet qonunida armiya, xavfsizlik xizmatlari va polisiyaga sarflanadigan xarajatlar 9 trillion rubldan (143 milliard AQSh dollar)dan oshadi. Ushbu miqdor 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lib, Rossiya Federatsiyasining butun budjetining 30% ortig'ini tashkil etadi. Rossiya harbiy budjetining harbiylarga tegishli mumkin bo'lgan xarajatlar turli moddalarga bo'lingan va ularning bir qismi maxfiylashtirilgan.

1990-yillarning boshlarida davlat mudofaasi buyurtmasining qisqartirilishi ko'plab mudofaa sanoati korxonalarining ahvoli keskin yomonlashishiga olib keldi. Bu yillarda davlat buyurtmasi bo'yicha etkazib berilgan mahsulotlar uchun to'lovlar ham ko'pincha kechiktirildi. Sobiq Sovet davlati tarqalgandan so'ng hukumat davlat mudofaa tartibini keskin kamaytirdi, ko'plab mudofaa korxonalarida bankrotlik holati kuzatildi, qolganlari esa harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishdan fuqarolik mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirildi. 2000-yil aprel

⁴ Kofman M. and Connolly R. Why Russian military expenditure is much higher than commonly understood (as is China's) [Электронный ресурс] // War on the Rocks: [сайт]. [2019]. December 16. URL: <https://warontherocks.com/2019/12/why-russian-military-expenditure-is-much-higher-than-commonly-understood-as-is-chinas/> (дата обращения: 16.12.2019).

⁵ Иванов И. Конкуренция Москвы и Вашингтона не ослабевает // Независимое военное обозрение, 2019. № 48. 27 декабря.

⁶ Индекс qiymati qanchalik past bo'lsa, harbiy kuch salohiyati shunchalik yuqori bo'ladi



oyida Rossiya prezidenti V. Putinning farmoni bilan harbiy-texnik hamkorlik (HTH)⁷ sohasidagi davlat vositachisi «Российские технологии» kompaniyasi boshqa vositachi - «Промэкспорт» kompaniyasiga qo'shildi. Bu HTH sohasida davlat vositachilarini birlashtirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

2000-yil 23-oktabrda Putin mudofaa sanoati davlat korxonalarining 10%dan ortiq aksiyalarini xoldinglarning bosh firmalarini boshqarishga o'tkazishni taqiqlovchi cheklovlarni olib tashlashga asos boladigan farmonni imzoladi. Ushbu cheklovlarning olib tashlanishi hukumatga mudofaa sanoati sohasida konsernlar tuzilishini boshlashga imkon berdi.

Rossiya mudofaa-sanoat kompleksi (mudofaa sanoati kompleksi)-Rossiya Federatsiyasining harbiy-sanoat kompleksi (harbiy-sanoat kompleksi) asosan Rossiyaning qurolli kuchlari, boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish idoralari uchun harbiy va maxsus texnika, o'q-dorilarni ishlab chiqarish, saqlash, foydalanishga topshirish, ilmiy-tadqiqot olib borish va sinovdan o'tkazuvchi ishlab chiqarish korxonalari to'plami sifatida faoliyat yuritadi.

2007-yilda Rossiya mudofaa sanoatining mahsulot sotish hajmi \$18,6 milliard dollarni tashkil etgan. Shundan 11,6 milliard AQSh dollar davlat buyurtmalariga, 7 milliard AQSh dollar eksport mahsulotlariga to'g'ri keladi. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra Rossiya sanoati jami dunyoga yetkazib beriladigan qurol-aslahalarning 25 % tashkil etadi. Rossiyaning mudofaa sanoatida tahminan 2,5-3 million kishi ishlaydi.

Qurol aslahalarni eksport qilish uchun umumiy javobgarlik mudofaa vazirligi huzuridagi [Harbiy-texnik hamkorlik federal xizmatiga](#) (HTHFX) yuklatilgan. 2000-yil 4-noyabrda Putin harbiy-texnik hamkorlik (HTH) sohasidagi ikkita vositachini «Промэкспорт» va «Росвооружения» kompaniyalarini yagona vositachi - «[Рособоронэкспорт](#)» kompaniyasiga birlashtirish to'g'risida farmonni imzoladi. 2000-yil 1-dekabrda Rossiya Federatsiyasining xorijiy davlatlarga qurol eksportini tartibga solish va nazorat qilish bo'yicha federal ijroiya organini - yani Harbiy-texnik hamkorlik bo'yicha qo'mitasini (HTHQ) tashkil etish to'g'risidagi farmon imzolandi. Harbiy-texnik hamkorlikni davlat tomonidan nazorat qilish hukumat raisidan (Rossiya sanoat va fan vazirligiga bo'ysunar edi) to'g'ridan-to'g'ri Rossiya prezidentiga hisobot beradigan Mudofaa vazirligiga o'tkazildi.

2001-yilda «[Сухой](#)» aviatsiya xolding kompaniyasi tashkil etildi. Keyinchalik НПК «[Иркут](#)» va «[ТАНТК имени Бериева](#)» aksiyalarining katta paketlari AXK «Сухой»ga o'tkazildi. Shuningdek, farmonga binoan «Комсомольское-на-Амуре» ishlab chiqarish birlashmasi va Новосибирск aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi aksiyalarning katta qismi AXK «Сухой» ga o'tkazildi. Shu bilan birga 2001-yilning noyabr oyida harbiy-texnik hamkorlik bo'yicha komissiya yig'ilishida Rossiya harbiy texnikalarini sotish va xizmat ko'rsatish va ehtiyot qismlarni yetkazib berish sohasini tartibga solish bo'yicha vazifalar belgilandi.

⁷ Rossiya Federatsiyasidagi amaldagi qonunchilikka muvofiq harbiy-texnik hamkorlik bu-harbiy mahsulotlarni etkazib berish yoki sotib olish, eksport va import, shuningdek harbiy mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq xalqaro munosabatlar sohasidagi faoliyat hisoblanadi. Hozirgi kunda Rossiya xorijiy davlatlar bilan uchta asosiy yo'nalishda harbiy-texnik hamkorlik olib bormoqda: harbiy mahsulotlarni eksport qilish, harbiy mahsulotlarning istiqbolli turlarini ishlab chiqish sohasidagi hamkorlik, harbiy mahsulotlarni import qilish.



2002-yil 23-aprelda «Антей» konserni va НПО «Алмаз» nodavlat tashkiloti asosida xolding tashkil etish to'g'risida farmon imzolandi. Xolding tarkibiga havo mudofaasi va raketaga qarshi mudofaa tizimlarini ishlab chiqaradigan bir necha o'nlab korxonalar va "Mudofaa tizimlari" guruhiga tegishli bo'lgan asosiy korxonalar kiritilgan. 2004-yilda Harbiy-texnik hamkorlik bo'yicha qo'mitasi (HTHQ) Rossiya federatsiyasi mudofaa vazirligi huzuridagi harbiy-texnik hamkorlik Federal xizmatiga, "Госкомоборонзаказ" esa Rossiya Federatsiyasi mudofaa vazirligi huzuridagi Mudofaa buyurtmasi bo'yicha Federal xizmatga aylantirildi.

2006-yilda Rossiya armiyasi uchun harbiy texnikalar (harbiy transport aviatsiyasi, kosmik vositalar, avtotransport vositalari, zirhli transport vositalari, havo mudofaasi va havo mudofaasi, kemalar va suv osti kemalari) sotib olish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan 2007-2015-yillarda Rossiya davlat qurol-yarog'ini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturni moliyalashtirish uchun jami 4,9 trillion Rossiya rubli ajratilgan.

2006-yilda Rossiya hukumati huzuridagi harbiy-sanoat komissiyasi tuzildi. Unga davlat harbiy-sanoat siyosatini amalga oshirish vazifalari va mamlakat mudofaasi, huquqni muhofaza qilish va davlat xavfsizligini harbiy-texnik qo'llab-quvvatlash kabi masalalari yuklatilgan.

2007-yil 1-martda Rossiya prezidentining farmoni bilan «[Рособоронэкспорт](#)», harbiy-texnik hamkorlikda yagona davlat vositachisiga aylantirildi, qolgan qurol ishlab chiqaruvchilar esa mahsulotlarni eksport qilish huquqidan mahrum qilindilar. Bundan ko'rinib turibdiki Rossiyada ishlab chiqarilgan harbiy mahsulotlar faqatgina «[Рособоронэкспорт](#)» orqali eksport qilingan. 2007-yilda Rossiya uch yillik davlat budjetini qabul qildi, natijada Rossiya mudofaa qo'mitasi uzoq muddatli (3 yildan ortiq) shartnomalar tuzishga o'tdi (ilgari shartnomalar bir yilga tuzilgan edi).

2009-yilda davlat mudofaa sanoati korxonalariga kredit berish uchun subsidiyalar shaklida tahminan 6 milliard rubl, korxonalarining ustav kapitaliga 60 milliard rubl ajratildi. O'sha yili ushbu korxonalar uchun 76 milliard davlat kafolati berildi. 2009/2010-yillarda mudofaa sanoati korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun jami 220 mlrd rubl ajratildi. Quyida Rossiya Federatsiyasining qurollar ishlab chiqarish va Qurolli Kuchlarda foydalanishga kiritilganligi bo'yicha ma'lumotlar keltirildi. (1.1 jadval)

1.1- jadval

Rossiya Federatsiyasining Qurolli Kuchlarida foydalanishga mavjud bo'lgan qurol-aslahalar va harbiy texnikalar⁸

T/r	Qurol aslahalar nomi	Qurolli kuchlarga kiritilgan yili
1	ПЗРК «Игла-С»	2004
2	Ми-35М (вертолет)	2005
3	Ка-52	2008
4	МБР «Тополь-М»	2000
5	Т-90А Танк	2005
6	ОТРК «Искандер-М»	2006



7	Мобильный вариант МБР «Тополь-М»	2007
8	ЗРК С-400	2007
9	МБР «Ярс»	2009
10	Бомбардировщик Су-34	2006
11	Учебно-боевой самолёт Як-130	2009
12	ПЗРК « Верба »	2011
13	Военно-транспортный самолёт Ил-76МД-90А	2014
14	« Бастион »	2010
15	БПЛА	2010
16	« Орлан-10 »	2010
17	Крылатая ракета Х-101	2012
18	Авиационная ракета Х-38	2012
19	ЗРК « Тор-М2У »,	2012
20	ЗРПК « Панцирь-С1 »,	2012
21	Комплекс РЭБ « Красуха-4 »	2012
22	Бронетранспортёр БТР-82А	2013
23	АПЛ проекта « Борей »	2013
24	Фронтальной бомбардировщик Су-34	2014
25	ПТРК « Штурм-СМ »	2014
26	АПЛ проекта « Ясень »	2014
27	Фрегат проекта 11356	2016
28	Су-35С	2012
29	Су-30СМ	2012
30	Су-57	2010
31	Истребитель поколения 4++ МиГ-35	2016
32	МиГ-35.	2017

2022-yil sentabr oyi boshida qurol-yarog' va texnika ta'mirlanadigan ikkita zirhli korxonalar qurish ishlari boshlandi. Ulardan biri Ramenskiy Moskva viloyatida 365 ish o'rniga mo'ljallangan 71-zirhli ta'mirlash zavodi, ikkinchisi - 227 ish o'rniga mo'ljallangan Rostov viloyati Kamensk-Shaxhtinskiydag 72-zavod. Ikkala korxonalar ham Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligiga bo'sungan.

Rossiya 2022-yilning birinchi olti oyida 6 milliard AQSh dollardan ortiq harbiy texnika va uskunalarni eksport qilgan. Shu bilan Rossiya hukumati "NATO arsenallari" zahiralarni aniqlash va u erda Rossiyaga qarshi ishlatilishi mumkin bo'lgan qurollarni aniqlashni boshladi.

2023-yil 18-yanvarda "Almaz-Antey" konserni Obuxov zavodi ishchilari bilan uchrashuvda Rossiya prezidenti Vladimir Putin mudofaa korxonalarining vazifalaridan biri fuqarolik mahsulotlarining 30 foizini ishlab chiqarish ekanligi, 2021-yilda harbiy texnika ishlab chiqarish 27% ko'paygan, shuning uchun fuqarolik sektorini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan.


1996-yilda davlat mudofaasi buyurtmasi taxminan 50 %, 1997-yilda 21% moliyalashtirilgan. 2000-yilda harbiy texnika sotib olish uchun davlat mudofaa buyurtmasi



doirasida 46 milliard rubl, 2001-yilda - 57 milliard rubl, 2002-yilda - 79 milliard rubl, 2003-yilda - 111 milliard rubl, 2004-yilda - tahminan 136 milliard rubl (4,7 milliard dollar) ajratildi.), bu esa eksport uchun qurol-yarog' yetkazib berish hajmiga teng bo'lgan.

2005-yildan boshlab davlat mudofaasi buyurtmasi har yili 30% oshdi. 2010 yilning o'zida Rossiya qo'shinlariga 20 ming dona qurol va harbiy texnika, shu jumladan 27 ta strategik ballistik raketa, 34 ta strategik kruiz raketasi, 6 ta kosmik kema, 21 ta samolyot, 37 ta vertolyot, 19 ta Sam, 61 ta tank, 325 ta zirhli jangovar transport vositalari yetkazib berildi. 2011-2020-yillar uchun davlat qurol-yarog' dasturi qabul qilinib uni amalga oshirish uchun 19 trillion rubldan ortiq mablag' ajratildi. 2022-yil 30-noyabrda mudofaa vaziri Sergey Shoygu tuzilmalar va harbiy qismlarni qurol-yarog' va jihozlarga doimiy tayyor bo'lishini ta'minlash maqsadida 2023-yilda davlat mudofaa buyurtmasini moliyalashtirishni bir yarim baravar oshirganini e'lon qildi. Rossiyaning jahon qurol bozoridagi ulushi 25 % (2016-yilda) va faqatgina AQShning ulushidan (33%) keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Strategik hamkorlar. 2004-yilda Rossiya qurollarni 57 mamlakatga, 2005-yilda 61 mamlakatga, 2006-yilda 64 mamlakatga eksport qildi. 2009-yilda Rossiya dunyoning 80 dan ortiq davlatlari bilan harbiy-texnik hamkorlik qilgan va 62 mamlakatga harbiy mahsulotlar etkazib bergan. Rossiya, Hindiston, Venesuela, Xitoy, Vetnam, Jazoir, Quvayt, Gretsiya, Eron, Braziliya, Misr, Suriya, Malayziya, Indoneziya bilan qurol-yarog' va ikki maqsadli mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha ko'p milliard dollarlik shartnomalar va bitimlarga ega bo'lgan. Eng yirik strategik hamkorlar Xitoy, Hindiston va Misr hisoblanar edi. 2019-yilda yangi sherik - Turkiya paydo bo'ldi va u birinchi marta Rossiya harbiy texnikasining beshta asosiy xaridorlari qatoriga kirdi (unga birinchi C-400 polk to'plami etkazib berildi). 2021-yilda Rossiya mudofaa mahsulotlarining eng yirik importchisi Chexiya (683 million AQSh dollar), Jazoir (603 million AQSh dollar) va Xitoy (488 million AQSh dollar) davlatlari bo'ldi. Harbiy-texnik hamkorlikda oldi-sotdi jarayonlarida AQSh dollaridan voz kechildi va hozirda hisob-kitoblar milliy valyutalarda, birinchi navbatda rublda amalga oshirilmogda (1.1-rasm).




1.1-rasm. 2021-yilda Rossiyadan harbiy mahsulotlarni eng ko'p import qilgan mamlakatlar.

Ushbu ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki Rossiyaning harbiy mahsulotlarni eksport qilish hajmi yildan yilga oshib bormoqda. Ushbu harbiy mahsulotlarni dunyo bo'ylab oldi sotdi jarayonida birinchi bor rublda amalga oshirilishi esa Rossiyaning iqtisodiy jihatdan yanada barkamollik sari dadil qadam tashlashiga imkon bermoqda.

Ta'minot tarkibi: Yetkazib berilgan harbiy mahsulotlarning tahminan 45% havo texnikalari, deyarli uchdan bir qismi havo mudofaasi kuchlari uskunalari va tahminan 15% quruqlikdagi qo'shinlarkuchlarining uskunalari, qolganlari dengiz qo'shinlari kuchlarining va boshqa turdagi kuch tuzilmalari uchun uskunalar (masalan, 2006-yilda havo qo'shinlari kuchlari uchun etkazib berish eksport hajmining 50 foizini, dengiz kuchlari uchun - 27 foizni tashkil etdi, quruqlikdagi qo'shinlar uchun-11 %, havo mudofaasi uchun-9 %) tashkil qilgan (1.2-rasm).

Dunyo muammolarini tadqiq qilish Stokgolm instituti (SIPRI) ma'lumotlariga ko'ra, 2005-2009-yillarda jangovar samolyotlarni yetkazib berish ulushi Rossiya uchun umumiy eksportning 40 foizini tashkil etgan, Rosoboroneksport ma'lumotlariga ko'ra, bu ulush Rossiya qurollarining barcha sotilishi hajmining tahminan 50 foizini tashkil qiladi.



1.2-rasm. Eksport uchun ishlab chiqarilgan harbiy mahsulotlarni yetkazib berish strukturasi.

Darhaqiqat yuqorida keltirilgan strukturadan aniqlashimiz mumkinki bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan harbiy mahsulotlarning katta qismi havo mudofaasi uchun muljallangan bo'lib, davlatlar o'zlarining havo mudofaasi salohiyatlarini oshirib borganlar.

Ta'minot hajmi: 1995-2001-yillarda Rossiya qurol-yarog' eksporti tahminan 3 milliard AQSh dollarni tashkil etdi. Keyinchalik ushbu ko'rsatkichlar har yili quyidagicha o'sishni boshladi

2002-yilda - 4,8 milliard AQSh dollarni

2003-yilda - 5,0 milliard AQSh dollarni tashkil etdi.

2004-yilda - 5,5 milliard AQSh dollardan ortiq

2005-yilda - 6,1 milliard AQSh dollar

2006-yilda - 6,4 milliard AQSh dollar

2007-yilda - 7 milliard AQSh dollar.


2009-yilda - 8,8 milliard AQSh dollardan ortiq. (260 milliard rubl)

2011-yilda - tahminan 12 AQSh milliard dollar

2018-yilda - 13,7 milliard AQSh dollar

2019-yilda - 15,2 milliard AQSh dollar

2020-yilda - 11,48 milliard AQSh dollar. (15,6 foizga pasayish), yil oxirida esa - 15,6 milliard AQSh dollarni tashkil etdi (1.3-rasm).



1.3-rasm. Eksport mahsulotlaridan tushgan pul mablag'larining o'sish dinamikasi (milliard AQSh dollarda)

Yuqoridagi rasmdan shuni aniqlashimiz mumkinki Rossiya iqtisodiyotining eksport hajmining ko'rsatkichlarida harbiy maqsadlar uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ulushi sezilarli darajada o'sib borgan. Rossiyada harbiy xarajatlarning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) nisbati yildan yilga o'zgarib borgan va 2022-yilda o'tgan 2021-yilga nisbatan 0,34 foizga oshgan. Rossiya 2022-yilda mudofaa uchun 86 milliard AQSh dollari sarfladi, bu mustaqil davlatlar Hamdo'stligidagi eng yuqori xarajat bo'lgan.

Ushbu natijalarga erishish uchun Rossiya uzoq yillar davomida harbiy iqtisodiyotini bir vaqtning o'zida fuqarolik mahsulotlarini ishlab chiqarishga moljallangan zavod va fabrikalarni barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilishdan boshlagan. Darhaqiqat, ishlab chiqariladigan mahsulotlarni diversifikatsiya qilish - mudofaa sanoati korxonalarida ish hajmini oshishiga va eksport salohiyatini o'sishiga olib kelgan.

Mudofaa sanoati korxonalarini davlat-xususiy sherikligi orqali rejalashtirish tamoyillari asosida diversifikatsiya qilish - ilmiy loyiha va ishlab chiqarish tashkilotining iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va import o'rnini bosuvchi dasturlar va milliy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratgan.

Ammo ushbu yo'nalishda ham dastlabki vaqtda bir qancha muammolar kuzatilgan. Ushbu muammolarni hal qilishning samarali vositalaridan biri ikki maqsadli ilmiy va ishlab



chiqarish klasterlari tarmog'ini yaratish bo'lib, uning konsepsiyasi Rossiya Federatsiyasi Harbiy-sanoat komissiyasi kollegiyasi ko'rsatmasiga asosan Davlat-xususiy rejalashtirish instituti tomonidan ishlab chiqilgan.

Ikki maqsadli ilmiy-ishlab chiqarish klasteri - bu harbiy-sanoat kompleksi tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro mintaqaviy hamkorlik shakli bo'lib, ilmiy va ta'lim tashkilotlari, o'rta va kichik innovatsion kompaniyalar o'rtasida yuqori texnologiyali fuqarolik va ikkilamchi maqsadli mahsulotlarni ishlab chiqarish, inson resurslarini rivojlantirish va ishlab chiqarish infratuzilmasini saqlash maqsadida amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi. Ikki maqsadli ilmiy-ishlab chiqarish klasterlari - ikki maqsadli mahsulotlarni ishlab chiqarish tizimini joriy qilish va ushbu ishlanmalarni amalga oshirish uchun yetarli shart sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish tizimini diversifikatsiya qilish va safarbarlik rejimlariga tez o'tish uchun haqiqiy sharoitlarni yaratadi hamda shu bilan birga mamlakat mudofaa qobiliyatini keyingi bosqichga olib chiqadi.

Dunyodagi hozirgi geosiyosiy vaziyat shuni ko'rsatib turibdiki, Rossiyaning milliy xavfsizligini faqat siyosiy imkoniyatlar (xalqaro tashkilotlarga a'zolik, sheriklik va boshqalar) hisobidan ta'minlash yetarli bo'lmaydi. Rossiyaning milliy xavfsizligiga tashqi, ichki va transchegaraviy tahdidlarni zararsizlantirish tobora davlatning harbiy tashkilotining asosiy vazifasiga aylanib bormoqda. Rossiyaning milliy manfaatlarini va xavfsizligini ta'minlashda harbiy iqtisodiy salohiyatning o'rni sezilarli ravishda ortib bormoqda. Markaziy Osiyo davlatlarining asosiy harbiy hamkori Rossiyani hisobga olsak, mintaqaning bir necha davlatlarida Rossiya harbiy bazalari joylashgan, aksariyat davlatlar Rossiya yetakchiligidagi harbiy ittifoq Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (KXShT)ga ham a'zo bo'lganlar. O'zbekiston esa Rossiya yetakchiligidagi harbiy ittifoqqa a'zo emas, aniqrog'i bu ittifoqni tark etgan. Shuningdek, mintaqada Rossiya harbiy bazasi joylashmagan asosiy davlat ham - O'zbekiston. Ammo mamlakat mudofaa salohiyati asosan Rossiya harbiy texnik mahsulotlari, qurol-yarog'laridan iborat.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mamlakat milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib boradi. O'zbekistonning hozirgi tashqi siyosati dunyo va mintaqadagi dinamik o'zgarishlar hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli islohotlarni hisobga olgan holda shakllantirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy maqsadi-davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro maydondagi o'rni va rolini yanada oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga qo'shilish, O'zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo'shnichilik kamarini yaratishdir.

O'zbekiston harbiy sanoati xorij texnologiyalarining, butlovchi qismlari va mutaxassislarini jalb etgan holda mamlakat Qurolli Kuchlarining qurol-yarog' va jangovar texnika, shu jumladan suv osti kemalari jangovar kemalar, katerlar shturmchi o'quv-jangovar va harbiy transport samolyotlari, avtomatik boshqaruv tizimlari jangovar razvedka mashinalari zirhli transportyorlar radiolokatsiya stansiyalari elektron asbob-uskunalar radiostansiyalar turli tipdagi artilleriya to'plari o'q-otar qurollar hamda o'q-dorilarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash salohiyatiga ega. Bu esa bizdan quyidagi vazilarni talab etadi:



1. Mamlakat mudofaasini harbiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshlangan islohotlarni jadallashtirish va yakuniga yetkazish kerak.
2. Mudofaa sanoatini komplekslarini isloh qilishda mavjud haqiqiy holat to'g'risida aniq tasavvur shakllantirish maqsadida uning asosiy vazifalari, kelgusi yillar uchun davlat mudofaa buyurtmalarining hajmi, tuzilishini belgilash;
3. Moddiy va ma'naviy jihatdan eskirgan qurol-aslahalarni modernizatsiya qilish bo'yicha boshlangan ishlarni jaallashtirish va yakunlash.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: "O'zbekiston", 2023-yil;
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'RQ-647-son Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi "Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi O'RQ-458-son Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ -537- son Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish va yanada rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 2738-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-son Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 4447-sonli Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tashkil topganligi 31 yilligi hamda Vatan himoyachilar kuni munosabati o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi, 2023-yil 13-yanvar, <https://president.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli kitobi, <https://president.uz>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Qurolli kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan bayram tabrigi // "Vatanparvar", 2023 y. 2-son.
12. Панкова Л.В. Корректировка госпрограммы вооружения России / Ежегодник СИПРИ: вооружения, разоружение и международная безопасность. Пер.с англ. М.: ИМЭМО РАН, 2018. 772 с.
13. Стригачева В. Об экономическом и военном потенциалах. Военная мысль. 1956№5.
14. Внешняя торговля СССР: Статистический справочник. 1918-1966. - М.: Статистика, 1967

